

ABU ALI IBN SINONING "SHE'R SAN'ATI" NOMLI RISOLASINING  
ADABIYOTSHUNOSLIKDA TUTGAN O'RNI

Yuldasheva Xurshida Xamidullayevna  
+998909564210, [xurshida\\_yuldasheva@mail.ru](mailto:xurshida_yuldasheva@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mashhur ajdodlarimizdan biri, qomusiy olim, shayx ur-raisa Abu Ali ibn Sinoning filologik asarlaridan bo'lmish "She'r san'ati" risolasi tahlil qilingan. Chunonchi, olim asarida keltirilgan boblarga bosqichma-bosqich munosabat bildirilgan.

**Kalit so'zlar.** Arastu, metafizika, lahn – garmoniya, taqlid, ritm, tashbih.

**Аннотация.** В данной статье анализируется трактат «Искусство поэзии», один из филологических трудов одного из наших знаменитых предков, энциклопедиста, шейха Ур-Раиса Абу Али ибн Сины. Например, главы, представленные в работе учёного, рассматриваются поэтапно.

**Ключевые слова.** Аристотель, метафизика, лан – гармония, таклид, ритм, ташбих.

**Annotation.** This article analyzes the treatise "The Art of Poetry", one of the philological works of one of our famous ancestors, an encyclopedist, Sheikh Ur-Rais Abu Ali Ibn Sina. For example, the chapters presented in the scientist's work are treated step by step.

**Keywords.** Aristotle, metaphysics, lahn - harmony, taqlid, rhythm, tashbih.

Ibn Sino adabiyotshunoslikka oid "Al-hikmat al-aruziya" ("Aruz hikmatlari"), "Al-mantiq fi-sh-she'r" ("She'riy nutq"), "Al-qasoyid fi-l-uzmat va-l-hikmat", tilshunoslikka oid "Lisa-nu-l-arab" ("Arab tili"), "Maxoriju-l-huruf" ("Harflarning mahrajlari") asarlarini bitgan.

O'zbek tiliga "She'r sant'ati" deb o'girilgan "Al-mantiq fi-sh-she'r" asari to'rt fasldan iborat bo'lib: birinchi fasl – she'r haqida umumiy tushuncha, she'riy shakl va yunon she'ri navlari haqida; ikkinchi fasl – she'rdagi umumiy g'araz (maqsad) turlari va taqlidlar haqida; uchinchi fasl – she'rning dastlab paydo bo'lish kayfiyati (sababi) va she'r turlari haqida; to'rtinchi fasl – bayt miqdorining g'arazlar bilan munosabati, xususan, fojia haqida va uning bo'limlari bayoni. Dastlabki fasl shunday boshlanadi: "Eng avvalo, biz shularni aytmog'chimiz: she'r odatda timsolli so'zlardan iborat bo'lib, u bir-biriga teng hamda vaznli gaplardan tuziladi. Arablarda esa she'r qofiyali bo'lib, she'rlarda ma'lum hi-sobda ritm bo'lishi tushuniladi. Bir-biriga teng bo'lishning

ma'nosiga kelsak, bunda she'rdagi har bir gapning ritmli qismlardan tuzilganligi tushuniladi. Odatda so'zning avvalgi ritmi bilan keyingi ritmining nisbati bir xil kelishi kerak". Ibn Sino bu o'rinda aytilgan ritm (vazn) va qofiyadan tashqari uning mantiqiga, timsolli (obrazli) fikrlash ekaniga e'tibor qaratadi: "...mantiqshunos she'rga uning obrazlilikiga jihatidagina diqqat qilmog'i kerak. Timsol orqali (obrazli qilib) aytilgan so'z kishi ruhini o'ziga bo'ysundiradigan bir holat kasb etadi... Bunday holatda o'sha aytilgan so'zlar to'g'rimi yo noto'g'rimi uning uchun ahamiyati bo'lmaydi. Chunki asli – tabiatida rost so'z hech mahal obrazli aytilgan va yo obrazli aytilmagan so'zlarga o'xshamaydi". Xuddi shu jihatdan Ibn Sino she'rni tushunishda o'z salafлари va zamondoshlaridan ilgarilab ketdi, chunki uning e'tiborini arab she'ridagi kabi vazn va qofiya jihatlari emas, balki uning timsoliy (obrazli) tabiati tortdi. She'rning rost voqealar haqida xabar berishi muhim emas, balki uning obrazli fikrlashi muhimdir, degan mantiq bilan yondashdi. Bu jihatdan she'rning "ta'sir kuchi", "odamlarni taajjubga solishi", "taqlidlar", "xayoliy (to'qima) obrazlar" kabi masalalar risola muallifi tomonidan tahlil markaziga qo'yildi. Shundan kelib chiqib, risolaning ikkinchi "ta'limi"da she'rning umumiy maqsadi va taqlid turlariga yuzlandi. Alloma yunon manbalariga suyanib aniqlashicha, "she'r uch xil narsa bilan xayolga ta'sir etadi": lahn – garmoniya (1), taqlid – tashbihli so'zlar (2) va ritm (vazn va qofiya) (3). She'rning dastlab paydo bo'lishi xususida "inson quvvati (ruhiy quvvat – nashr.)da she'r tug'ilishining ikki sababi bo'ladi: ularning biri taqlid – tashbih bilan lazzatlanish, ikkinchisi esa yoshlikdan boshlab shu taqlidning inson faoliyatida ishlatilib kelinishi. Mana shu xislat bilan inson barcha tilsiz hayvonlardan farq qiladi". Insondagi taqlid maymundagi kabi harakatga yoki to'tiqushdagi kabi tovush (so'z)ga taqlid emas. Inson taqlid qilar ekan, u ma'noga ishora qiladi, o'sha ishoralar esa (she'riy) ta'lim o'rnini egallaydi. Insondagi taqlidga ritm jo'r bo'lsa, ma'noviy ishoralar ruhga kuchli ta'sir qiladi, "ruh bundan yengil tortadi, shavqqa to'ladi va taqlid bilan lazzatlanadi". Ayni fikrlar ayrim she'r navlariga emas, butun badiiy asarlarga tegishli bo'lgani uchun bular qatoriga alloma "ikkinchi sabab" qilib, "odamlar tabiati-dagi kompozitsiya va kuylar ta'lifiga bo'lgan muhabbat"ni keltiradi. "Mana shu ikki sabab yuz bergach, she'r tug'iladi. U kishi tabiatiga asta-sekin singib, una boshlaydi. U ko'proq tabiatan shoir bo'lganlarda favqulodda va tabiiy ravishda yaratiladi". Ibn Sino asarida bunday nazariy umumlashmalar muayyan janrlar talqini bilan birga beriladi. To'g'ri, muallif ko'proq yunon she'r navlariga va adabiy turlariga murojaat qiladi va nihoyat, so'nggi "ta'lim"da esa har bir adabiy tur o'ziga munosib vaznda aytilishini ta'kidlaydi. Shundan kelib chiqib, epos va epopeya vazni, masal va hikoyalar vazni, shuningdek, fojia va drama vazni belgilanadi. Ibn Sino belgilagan tushunchalar qamrovi birgina lirik asarlarga

munosabatga emas, balki epik va dramaturgik janrlarga nisbatan ham qo'l kelishi so'nggi jumladan ayonlashgan bo'lsa kerak. Mana shularning barchasi "san'atkorlik" (mahorat) deb nomlanadigan tushunchaga bog'lanadi. "San'atkorlik esa she'riyatning oliy darajasidir". Shuning uchun ham «shoirilar – olam shahzodalari, ya'ni ruh hokimlari»dirlar.

Ibn Sinoning mazkur xulosasi badiiy-estetik tafakkur tarixida ilmiy inqilob ediki, shuning uchun ham u Dante va boshqa G'arbiy Yevropa Uyg'onishining ilk namoyandalari orqali Renessans g'oyalariga borib ulanadi. O'rta asr Yevropasi Sharqning ilm-madaniyat yutuqlari bilan birga, estetik qarashlari, adabiy-badiiy an'alarini ham qabul qilib olgani haqida olmon olimi Gerder yozadi: «Arablar (arab tilida yozgan mualliflar – nashr.) falsafa bilan poeziya sintezini nihoyasiga yetkazdilar hamda she'riyatni ko'tarinki tasavvuf g'oyalari bilan sug'ordilar... arab faylasuflari ayni paytda shoir ham edilar, shuning uchun rta asrlarda tasavvuf bilan adabiyot doimo yonma-yon yuradigan, bir-biriga o'tadigan hodisa bo'ldi". Prof. N.Komilov «Tafakkur karvonlari» kitobida Sharq Uyg'onish davri madaniyatining G'arb xalqlari madaniyatiga ijodiy ta'siri haqida yozgan mulohazalari zaminida Ibn Sino kabi Sharq falsafasi va adabiyotshunosligining muhtasham darg'alari turadi.

Xulosa qilib aytganda, Ibn Sinoning "Kitob ush-she'r"i Aristotelning "Poetika"si asosida yaratilgan ajoyib asar bo'lib, o'z davri adabiyotshunosligini qamrab olgan qimmatbaho manbadir.

Olim bu kitobi orqali, avvalo, islom tarqagan o'lkalarda qadimgi yunon adabiyotini targ'ib qilgan va shu munosabat bilan o'zida paydo bo'lgan adabiy o'y va mulohazalarini o'rtaga tashlagan bo'lsa, qolaversa, adabiyotshunoslik borasida to'ngacha kam asar yaratilgan bir sohani o'z kitobi bilan baholi qudrat boyitmoqchi bo'lgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абу Али ибн Сино. Саломон ва Ибсол. Фалсафий қиссалар. Шеър санъати. Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашр., 1980. Б.87.
2. Гердер Г. Идеи к философии истории человечества. С.573–574.
3. Абу Али ибн Сино. Тайр қиссаси / Ислом тасаввуфи манбалари. Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев. Т.: Ўқитувчи, 2005.
4. Х.Ҳулдасева. Абу Али ибн Синoning adabiyotshunoslikka oid risolalarida poetika muammolari. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2023-yil.